

**BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QUVCHILARINI O'QITISHDA PEDAGOGIK
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH**

Ahmedova Aziza O'ktamboyevna

*Namangan viloyati Mingbuloq tumani 41-umumiy o'rta ta'lif
maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10702812>

Abstract: In this article, views on the use of pedagogical technologies in teaching elementary school students are reflected.

Key words: Pedagogical technology, national program, computer system information media, interactive methods.

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lif o'quvchilarini o'qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish borasida qarashlar o'z aksini topadi.

Kalit so'zlar: Pedagogik texnologiya, milliy dastur, kompyuter tizimi axborot vositalari, interfaol usullar.

Pedagogik texnologiyalar ta'lif jarayonining unumdarligini oshiradi, o'quvchilarni mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyatda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi. Ta'lif samaradorligi, chunki ta'lif jarayoni o'ta murakkab jarayondir pedagog va talabaning faoliyatiga, ta'lif vositalarining mavjudligiga, ta'lif jarayonini tashkil etishga, ilmiy va uslubiy mukammallikka bog'liq. Bugungi kunda axborot kommunikatsiya tizimi jahon miqyosida yuqori darajada rivojlanib borayotganligi va boshqa sohalar qatorida ta'lif jarayoniga kirib borishi va uni amalga oshirishi yaxshi tashkil etishga ta'sir qilishini hammamiz bilamiz. Bunday inson faoliyatining nazariy va amaliy jihatlari doimiy ravishda yangilanadi tabiiydir. Pedagogik faoliyat ham alohida va murakkab ish turi sifatida chiqarib tashlanadi emas. Pedagoglar o'z faoliyatida kafolatlangan natijalarga erishishga harakat qilmoqda.

XXI asr olimlarimiz tomonidan axborot texnologiyalari asri sifatida e'tirof etilishi pedagogik va axborot texnologiyalari barcha sohalarda, jumladan, ta'lif sohasida ham kundan-kunga rivojlanib borayotganini va an'anaviy o'qitish usullaridan ko'ra yangi axborot texnologiyalaridan keng foydalanish samarali va yuqori natijalarga olib keladi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga kiritilgan pedagogik va axborot texnologiyalari, kompyuterlashtirish va kompyuterlar kabi tarmoqlar asosida ta'lif jarayonini yangi axborotlar bilan ta'minlash rivojlanmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning 29-apreldagi farmoni bilan Xalq ta'lifi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi va uni joriy yilda amalga oshirish uchun yo'l xaritasi tasdiqlandi. Yo'l xaritalari har yil uchun alohida qabul qilinadi. O'zbekistonning 2030 yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) Xalqaro

miqyosda o'quvchilarni baholash dasturi reytingi bo'yicha jahoning birinchi 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish ko'zda tutilgan.

Mamlakatning ertangi kuni esa, dunyoqarashi keng maktab bolalari va zamonaviy, salohiyatli o'qituvchi-murabbiylarga ko'p jihatdan bog'liqdir. O'quv-tarbiya ishlari jarayonida o'quvchilarni ijodiy fikrlashga, o'zgaruvchan vaziyatlarga o'rgatish, erkin raqobat asosida faoliyatni tashkil etish hamda ularning amaliy mashg'ulotlarda pedagogik texnologiyalar, axborot texnologiyalari ta'lim-tarbiya islohati, yuqori malakali kadrlar tayyorlashga erishish mamlakatimiz taraqqiyotini ta'minlovchi asosiy omillardan biridir. Bugungi kunda zamonaviy dars samarali bo'lishi kerak unda: O'qituvchi bugun o'z oldiga qo'ygan maqsadlarni amalga oshira oladigan. O'qituvchi halollik va fidoiylik fazilatlarni o'zida mujassam etishi o'qituvchi o'quvchi ko'z o'ngida chinakam sobiq hayot ta'limini beruvchi ustoz sifatida namoyon bo'lishi zarur. Noan'anaviy ta'lim metodlari dars jarayonining unumdorligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi. Bunday metodlarga asoslangan ta'lim jarayonida o'qituvchi faoliyati va o'quvchi faoliyati doirasi aniq belgilanadi, ta'limni tashkil etishning aniq texnologiyasi ko'rsatiladi. Bolaning ongi va tafakkuri endi shakllanib kelayotgan boshlang'ich sinflarda o'qituvchining mahorati, uni pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga mohirona tadbiq eta olishi, ta'limning yangi-yangi yo'l va usullarini izlashi, pedagogik tajribalardan ijodiy foydalana olishi juda muhimdir. Noan'anaviy metodlardan foydalanishni ta'lim jarayonida tadbiq qilish hozirgi davr talablaridan biri hisoblanadi.

Noan'anaviy metod texnologiyasi-muayyan muddatga mo'ljallangan ta'lim jarayon markazida o'quvchi shaxsi bo'lib, o'qitishning zamonaviy shakli, faol o'qitish metodlari va zamonaviy didaktik vositalarning majmuini ta'lim-tarbiya ishidan ko'zlangan maqsad va kafolatlangan natijaga erishishga yo'naltirishdir.

Pedagogik texnologiyalardan foydalanish

Butun dunyo olimlarining etirof etisharicha 21 -asr zamonaviy axborot texnologiyalari rivojlangan davr. Olimlarimiz bu davrni kompyuter texnologiyalar davri deb ataydilar. Pedagogik va zamonaviy texnologiyalarning yutug'i ta'limning har bir sohasida ko'zga yaqqol tashlanib ko'rilmoxda. Shuning uchun ham uzlucksiz ta'limning deyarli har bir sohasida yangilik qilish yoshlarni qiziqishlarini yuzaga chiqarish barcha fanlarni qamrab olgan bilimlarni bera olish pedagogning mahoratiga bog'liqdir. Ta'limda qo'llanadigan har bir usul doimo yangilikka undashi, yoshlarning fikr, so'z erkinligi, muloqot, shaxsiy qarashlarning yuzaga chiqarishi zamonaviy aql idrokini vujudga keltirishi, uni har sohada qo'llay olishiga bog'liq. Dars jarayonlarida qo'llanadigan pedagogik texnologiyalar natijasida o'quvchilarda bir-birlari bilan o'zaro raqobat yuzaga keladi. Uning natijasida darsning samarasi, fanning o'zlashtirilishi yaxshilanadi. Aynan interfaol usullardan foydalanish bolaning o'zini emin-erkin fikrlashiga bilimlarini yuzaga chiqishiga turki bo'ladi. O'qituvchilar tomonidan tashkil etilgan har bir dars yosh bolaning katta hayotga qadam tashashida har tomonlama turki bo'ladi. Ta'lim jarayonlarni doimiy tashkil etish uni boshqarish, yangi g'oyalarni har tomonlama joriy etish pedagogik jarayonlarning orasida yuzaga keladi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida aytib o'tilganidek

har bir darsga yangicha usulda yondashish ularni tushunilishi qulay bo'lishi sifatning yuqorilagini tashkil qilish uchun har bir dars zamonaviy axborot vositalari, kompyuter texnologiyalari bilan bir qatorda pedagogik texnologiyalarni ham qo'llashliklari kerak. Ta'lrim jarayonlari yangi bilimlar bilan boyib bormoqda. Ular uchun yangi axborotlarni kiritish bugungi kunning asosiy vazifasiga aylanib ulgurdi. Pedagogik texnologiyalarni dars jarayonlarida tatbiq etish, darsning ta'limiylarini jihatdan to'la sifatini oshirish bugungi kunning eng asosiy vazifasidir. Texnologiyalardan aynan boshlang'ich davrda foydalanish yoshlarning bilim salohiyatlaridan kelib chiqqan holda pedagogdan yuksak ma'suliyatni talab etadi. Darsdagi o'quvchilarning birday o'zlashtirishlari dars jarayonlarini qabul qila olishlari mahorat darslariga bog'liq. Bu davrda pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta'lim -tarbiyaning maqsadiga mos bo'lgan holda olib borilishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta'larning maqsadi berilayotgan barcha qulayliklardan oqilona foydalanish, ko'nikmalarni hosil qilish, bolaning ijodkorligini yuzaga chiqarish, tafakkurini o'stirish, savodxonligini shakllantirish, fanlarni tez va oson sifatli egallahsga ko'maklashish, milliy g'oyani singdirib borish, shaxsning manaviyatini har tomonlama boyitishdan iborat. Bolada yuqoridaagi jarayonlarni yuzaga keltirish natijasida tafakkur ulg'ayib boradi. Ulug' donishmandlardan biri "kelajak tashvishi bilan yashasang, farzandlaringga yaxshi bilim ber, o'qit" degan ekan. Yurtimizda bugungi kungacha qilingan ishlar shunchaki 5 yoki 10 yillik tajribalar emas, yillar davomida sarflangan bilimlar natijasidandir. Ko'p yillik mehnatlarning mahsulidir. Yurtboshimiz ham pedagogik texnologiyalardan foydalanish orqali aqlni teran shiddatli yoshlarni yutuqlarini amaliyotda qo'llash orqali yuksak ma'nani yetuk shaxsni tarbiyalash mumkinligini etirof etib o'tgan. Haqiqatdan ham pedagogning bilimlarini o'rganish orqali yoshlarda savod jarayonlari o'sib boraveradi. Bolalarning dunyosi turli xil bir - biridan farq qiladi. Interfaol usullar aynan ularning birgalikda harakat qilishi bilimlarini o'rganishi uchun asosiy vositadir. Inson yashab turgan ekan o'rganganlari kamdek tuyilaveradi. Bilim ummonidan qonib qonib ichganimiz sari chanqog'imizni yana ham to'dirgimiz zamonaviy bilimlardan boxabar bo'lib borgimiz kelaveradi. Ertangi kunimizning qanchalar go'zal va betakror bo'lishi bugungi yoshlarmiz qo'lida. Ularga ilg'or texnologiyalardan foydalangan holda bilimlarni kuchaytirmog'imiz kerak. Ana o'shanda o'z maqsadimizga erishamiz.

Adabiyotlar:

1. Omonov X.T., Xattobov M.B. "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat" T., 2016.
2. Azizzxo'jayeva N.N. "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat" T. 2006.
3. Yo'ldoshev J.G., Usmonov S. "Ilg'or pedagogik texnologiyalar" - O'qituvchi, 2007.